

T. Karaliyev, U. Ortiqov, S. Xolmurodov

BAZEL QO'MITASI VA UNING TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDAGI ROLI



TOSHKENT MOLIYA INCTITUTI

T. KARALIYEV, U. ORTIQOV, S. XOLMURODOV

**BAZEL QO‘MITASI VA
UNING TIJORAT BANKLARI
FAOLIYATINI TARTIBGA
SOLISHDAGI ROLI**

Tafakkur qanoti
Toshkent-2017

UO‘K 811.52
KBK 83.3(50‘)
T-88

Taqrizchilar:

I. Toymuhamedov – i.f.n. TDIU «Bank ishi» kafedrası dots.

D. Saidov – i.f.n. dots. TDIU «Bank ishi» kafedrası mudiri

T.Karaliyev, U.Ortiqov, S.Xolmurodov

BAZEL QO‘MITASI VA UNING TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI
TARTIBGA SOLISHDAGI ROLI. /Toshkent: «Tafakkur qanoti», 2017.– 104 b.

ISBN 978-9943-382-95-4

Ushbu monografiyada Bazel Qo‘mitasining tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishdagi roli, Bazel talablarini joriy qilishga doir xorijda, jumladan, AQSH, Rossiya, Xitoy hamda qator Yevropa mamlakatlarining tajribalari keng yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, Bazel standartlarini Respublikamiz bank tizimida samarali tadbiiq etishda hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar, ularning yechimlari, taklif va tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Monografiya “Bank ishi”, “Bank hisobi va audit” ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan kollej o‘quvchilari, bakalavr, magistratura bosqichi talabalari, mustaqil ilmiy izlanuvchilar hamda professor-o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

**UO‘K 811.52
KBK 83.3(50‘)**

Ushbu monografiya Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashi tomonidan 2016 y. 27 avgustdagi 1/7.9-sonli bayonnosi asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-382-95-4

© **T.Karaliyev, U.Ortiqov, S.Xolmurodov, 2017 y.**
© «Tafakkur qanoti» nashriyoti, 2017 y.

KIRISH

Tijorat banklari faoliyati daromad olish bilan bir qatorda risk bilan ham chambarchas bog'liq faoliyat bo'lib, bu avvalo banklar faoliyatining asosan jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Buning natijasida bank faoliyatida doimo likvidlilik riski, kredit riski va tizimli risk yaqqol ko'rinib turadi.

Buning ustiga tijorat banklari faoliyatining bosh maqsadi yuqori darajada foyda olishni ta'minlash bo'lganligi bankni yuqori daromadli, ayni vaqtda, yuqori riskli operatsiyalarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Bularning barchasi pirovardida banklar faoliyatida foydali-lik va likvidlilik kategoriyalari o'rtasidagi murakkab ziddi-yatli bog'liqlikni yuzaga keltiradi. Agar tijorat banklari faoli-yati asosan jalb qilingan resurslar hisobidan shakllantirilishini inobatga oladigan bo'lsak, bank mijozlari va investorlarning manfaatini himoya qilish shuningdek, bank tizimi iqtisodiyot-ning muhim bo'g'ini ekanligini inobatga olib, uning davlat tomonidan tartibga solinishi hamda nazorat qilinishi muhim masalga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2015-yil yakunlari bo'yicha qilgan ma'ruzasida ta'kidlanganidek "Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish suratlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ldi. Buning natijasi-da bank tizimining jami kapitali 2014 yilga nisbatan 23,3 foizga ko'payib, 7 trillion 800 milliard so'mga yetdi. So'nggi 5 yilda mazkur ko'rsatkich 2,4 barobar o'sdi. Bu xalqaro standartlardan 3

marta, bank likvidligi esa eng yuqori ko'rsatkichlardan 2 marta ko'pdir".¹ So'nggi yillar davomida "Mudis", "Standart and Purs", "Fitch reytings" kabi yetakchi reyting agentliklari O'zbekiston bank tizimi faoliyatini "Barqaror" deb baholamoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar 2011 yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda respublikamizning 26 ta banklari ana shunday bahoga ega deb ta'kidlab o'tdilar. 2015-yilda tijorat banklari faoliyatini baholash tizimini xalqaro reytinggi kompaniyalarining mezon va andozalari asosida amalga oshirish, bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini amaliyotda qo'llash, tijorat banklarining buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish borasida Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi bilan hamkorlik ishlari davom ettirildi².

Ayni vaqtda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish borasida hal qilinmagan masalalar, kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Chunonchi mamlakatimiz bank tizimi va banklarning likvidligini doimo saqlab turish, shu bilan birgalikda tijorat banklarining aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ining nisbatan yuqori darajada qolayotganligi, ayrim yirik tijorat banklarining resurs bazasini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi majburiy zaxira talabnomalarining mavjudligi, banklarning kredit portfelini diversifikatsiya qilish borasidagi va boshqa shu kabi muammolar mavjud. 2015-yil 6-maydagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-

¹O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasi. <<Xalq so'zi,>> 2016 yil 16 yanvar.

²www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb sayti.

tadbirlari to'g'risida" gi qarorda bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi yangi standart va tavsiyalarini joriy etish bo'yicha "Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan tijorat banklariga nisbatan qo'yiladigan me'yoriy talablarni nazarda tutgan yangi standart va tavsiyalar (Bazel-III standartlari) ishlab chiqish zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga yuqoridako'rsatilgan bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining standart va tavsiyalarini (Bazel III standartlari) 2015-2019 yillarda bosqichma-bosqich joriy etishni ta'minlash"ga e'tibor qaratilgan.³ Xalqaro Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan tijorat banklariga nisbatan qo'yiladigan me'yoriy talablarni yanada takomillashtirishni, jumladan, kapitalning yetarliligi va likvidlilik ko'rsatkichi bo'yicha talablarni nazarda tutgan yangi standartlar va tavsiyalarni mamlakatimiz bank-moliya tizimida joriy qilish imkoniyatlarini ochib berish hamda tijorat banklarini nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish orqali bank tizimi barqarorligini oshirishning ahamiyati ushbu ilmiy risolaning nazariy hamda amaliy jihatdan dolzarbligini ifodalaydi.

Shu bilan bir qatorda, bank tizimida yechimini kutayotgan quyidagi muammolar ya'ni Bazel standartlarini Respublikamiz me'yoriy talablaridagi mavjud bir qator tafovutlarni bartaraf etish, tijorat banklari kapital bazasida ikkinchi darajali kapitalning ulushining kamligi, tijorat banklari aktivlarining tarkibida daromad keltirmayotgan aktivlar salmog'ining yuqoriligi, resurs bazasining zaifligi, majburiy zaxira me'yorlarining yuqoriligi,

³ O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2015 yil 6-maydagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida " gi PQ-2344 sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2015 yil 18- son, 213-modda.

risklarni baholash tizimini ilmiy yechimlarini aniqlash mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur ilmiy risolada asosiy e'tibor qayd etilgan muammolarning mohiyatini ochib berish va ularni hal etishda respublikamiz tijorat banklari amaliy ma'lumotlari tahlili asosida tadqiq etilgan.

1.BOB. XALQARO BAZEL QO‘MITASI VA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH ASOSLARI

1.1. Xalqaro Bazel qo‘mitasining tashkil topishi va faoliyati

XX-arsning 70 yillaridan boshlab milliy va xalqaro darajada kredit tashkilotlari tomonidan riskni baholashning aniq qoida va me'yorlar kiritish bilan moliyaviy barqarorlikni himoya qilishga urinishlar bo'ldi. Mazkur davrda bank nazorati va ularning faoliyatini tartibga solish masalalari bo'yicha Bazel qo'mitasi tashkil topdi. 1974-yil iyun oyida G'arbiy Germaniyaning "Benxaus Xershtatt" banki xorijiy valutatadagi operatsiyalardan so'ng katta zarar ko'rdi va bankrotlikka uchradi. Shu bilan birga, valuta kurslarini tartibga solib turuvchi Bretton-Vuds tizimining faoliyati to'xtatilgandan so'ng bir qator banklar ham juda katta zararlarga duch keldi. Jumladan, AQSHning "Franklin National" bankining 1974 yil may oyida xorijiy valutatadagi operatsiyalaridan ko'rgan zararlari natijasi ommaviy tarzda depozitlar va omonatlarni qaytarib olishga olib keldi. Bu esa bank faoliyatini to'xtatilishiga sabab bo'ldi. Vujudga kelgan tanglik holatidan chiqib ketish maqsadida dunyoning 10 ta rivojlangan mamlakatlari, ya'ni AQSH, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada, Fransiya, Shvetsariya va Yaponiya Markaziy banki boshqaruvchilari 1974yil sentabr oyida moliya bozoridagi barqarorlikni ta'minlash maqsadida kelishuv qabul qildi. 1974-yil dekabr oyida Shvetsariyaning Bazel shahrida bo'lib o'tgan "O'nlik" guruhi uchrashuvida Angliya bankining boshqaruvchisi Gordon Richardson taklifiga ko'ra, boshqaruvchilar tomonidan banklarni tartibga solish va nazorat qilish uslublarini takomillashtirish maqsadida doimiy qo'mita tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi va shu tariqa bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi vujudga keldi. Yangi, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi bu qo'mitaning birinchi raisi etib, Angliya Bankining bank nazorat boshqarmasi boshlig'i Jorj Blanden tayinlandi. Qo'mita sekretariati Shvetsariyadagi "Xalqaro hisob-kitoblar banki" da joylashtirildi.

Qo‘mita doimiy ravishda bank nazoratiga bog‘liq masalalar yuzasidan forumlar tashkil qilib, turli sohalarda o‘zining tavsiyalari hamda standartlarini ishlab chiqadi. Uning maqsadi bank nazorati sifatini global miqyosda takomillashtirish hamda nazorat jarayoniga oid asosiy masalalarga oydinlik kiritishdir.

Qo‘mitaning hozirgi raisi Stefan Ingves. Qo‘mita har birining zimmasiga aniq vazifa yuklatilgan bir necha kichik guruhlariga ega, ular quyidagilar:

1. Standartlarni joriy qilish guruhi:

➤ Operatsion risk bo‘limi – operatsion risk bilan bog‘liq masalalar bilan shug‘ullanadi;

➤ xodimlar masalasi bo‘yicha maxsus bo‘lim – nazorat xodimlari borasida Bazel qo‘mitasi ishlarida tavsiyalar ishlab chiqadi;

➤ mukofotlash bo‘yicha maxsus bo‘lim – adolatli mukofotlash amaliyotini tasdiqlashni qo‘llab-quvvatlaydi;

➤ standartlar monitoringi tartibi maxsus bo‘limi – standartlarni monitoring qilish hamda amalda joriy etilishining samaradorligi va barqarorligini oshirish maqsadida tartiblarni ishlab chiqadi.

2. Qo‘mita tavsiyalarini ishlab chiqish guruhi:

➤ risk menejmenti va modellashtirish guruhi;

➤ izlanish maxsus bo‘limi – a‘zo mamlakatlar iqtisodchilarining moliyaviy barqarorlik bo‘yicha izlanishlarini muhokama qilish ishlarini tashkillashtiradi;

3. Savdo kitobi (*Trading Book*) guruhi – savdo kitobidagi risklar doirasi regulyativ kapitalda qanday hisobga olinishi lozimligini ko‘rib chiqadi;

➤ likvidlilik bo‘yicha ishchi guruh – global miqyosdagi likvidlilik standartlari bilan shug‘ullanadi;

➤ kapital tarkibi bo‘limi – munosib kapital instrumentlarini qayta ko‘rib chiqadi;

➤ kapital monitoringi bo‘limi – milliy nazoratchilar ekspertlarini kapital talablarini monitoring qilishda yo‘naltiradi;

➤ xorijiy bank rezolyutsiyasi guruhi – milliy siyosatlar, qonuniy tartiblar va xalqaro faoliyat yurituvchi banklar bilan munosabatlarni taqqoslaydi;

4. Buxgalteriya maxsus bo‘limi – buxgalteriya hisobi va audit standartlarining samarali risk menejmentini olib borishni qo‘llab-quvvatlashini va bu orqali bank tizimining xavfsizligi hamda rivojini ta’minlaydi;

5. Bazel konsultativ guruhi – bank nazoratchilari orasida, shuningdek a’zo bo‘lmagan mamlakatlar bilan muzokaralarda ham kelishuvlarga erishishda ko‘maklashadi. Qo‘mita tuzilgan vaqtda “O‘nlik” guruhi davlatlarining moliya bozorlaridagi operatsiyalari hajmi barcha bank operatsiyalarining 90 foizini tashkil etgan edi. Asosiy ishtirokchilar sonining cheklanganligiga qaramay hamkorlikning kengayishi mintaqaviy guruhlarni tuzish orqali ta’minlandi. Ulardan birinchisi 1980-yilda tashkil etilgan bank nazoratining offshor mamlakat guruhi hisoblanib, unda o‘sha paytdagi barcha yetakchi offshor markazlarning tartibga solish va nazorat qilish organlari ishtirok etdi. Dastlab vakolatlar doirasi cheklanganligiga qaramay, qo‘mita o‘z faoliyatini ko‘p yo‘nalishlar bo‘yicha kengaytirdi. Bu yo‘nalishlar davlatlararo milliy bank nazorati mexanizmlar to‘g‘risidagi ma’lumot almashish, xalqaro banklar faoliyatini nazorat qilish usullari samaradorligini oshirish, kapital yetarliligining minimal normalarini tadbiq qilish, shuningdek nazorat organlarini qiziqtirgan boshqa muammolarni tahlil qilishga tegishlidir.

Shu bilan birgalikda, qo‘mita ilgari qabul qilingan andozalardan voz kechib, o‘z faoliyatini bank nazorati sohasida hamda kapitalning yetarligiga oid minimal normativlardan faol foydalanishga qaratdi. Moliyaviy barqarorlikni dinamik rivojlanishda qo‘mita kompleks sohalararo rivojlanishga katta e’tibor qaratmoqda, jumladan qimmatli qog‘ozlar va sug‘urta faoliyatini nazorat qiluvchi organlar bilan, shuningdek, buxgalteriya hisobi va xalqaro audit andozalari kabi boshqa sohalar bilan hamkorlikni kengaytirmoqda. 1975-yilda qo‘mita xalqaro bank muammolari bo‘yicha bir qancha xujjatlarni ishlab chiqdi. Bu sohada bo‘lib o‘tgan o‘zgarishlar qaysidir darajada qo‘mita siyosatidagi o‘zgarishlarni va uni nazoratiga yondashishni aks ettirsada, ammo xalqaro bank faoliyatidagi va moliyaviy bozorlardagi o‘zgarishlar qo‘mita uchun birinchi dara-



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/3298> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/3298> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3298>